**Pedagogik mahorat**

# Yosh o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida qanday psixologik muammolarga duch keladi?
A) Do‘stlik, hamjihat bo‘lib ishlash, xizmatdagi mutanosiblik;
B) Yolg’on xushomad qilish, kasbga bo‘lgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoqtirmaslik;
C) Ijtimoiy munosabat, guruhdan qo‘rqish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ziddiyatning hosil bo‘lishi;
D) Mensimaslik, buyruq, ayblash, kesatiq;

# Pedagogik faoliyat deganda qanday jarayon tushuniladi?
A) Pedagogik jarayon-inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan jarayon;
B) Pedagogik jarayon- kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llash, ta’lim berishga hamda fanga oid o‘quv materiallari to‘g’risidagi ma’lumotlarni samaradorli o‘zlashtirilishiga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni;
C) Bolalarga ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik kasb egasi;
D) Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyati.

# Qobiliyat nima?
A) Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va o‘z ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub’ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatdir;
B) Qobiliyat – o‘qituvchining o‘z faolligini rejalashtira olish demakdir;
C) Qobiliyat – odamlarning psixik holatini tushunish, ma’lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibini o‘zlashtirish darajasi;
D) Qobiliyat – faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan psixologik tushuncha;

# O‘qitish usuli nima?
A) O‘qitish usuli – o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati mahsuli;
B) O‘qitish usuli – bu muayyan fanni o‘qitishga taaluqli bo‘lgan metod, shakl va vositalar
majmuasi;
C) O‘qitish usuli – pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, uning barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog’lashga xizmat qiladi;
D) O‘qitish usuli – o‘qitish metodini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlikda bajaradigan operatsiya

# Og’zaki ta’lim metodlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?
A) Hikoya, suhbat, mashq;
B) Ma’ruza, trening, suhbat;
C) Hikoya, suhbat, ma’ruza;
D) Ma’ruza, seminar, laboratoriya ishi.

# Metodologiya nima?
A) Metodologiya – metod haqidagi ta’limot yoki metodlar nazariyasi;
B) Fanlarni o‘qitish qoidasi;
C) Fanlarni o‘qitish nazariyasi;
D) Metodga asoslanmagan  o‘qitish usullari.

# Ko‘rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda qanday metodik talablarga rioya qilinishi kerak?
A) Ko‘rgazmali qurollarning mashg’ulot o‘quv materialiga mos bo‘lishi;
B) O‘qituvchi ko‘rgazma qurolni qo‘llashda ularni talabalar tomonidan idrok etish jarayoniga rahbarlik qilishi;
C) Ish usullari, plakatlar, sxemalar, jadvallarning tizimli qo‘llanilishi;
D) Javoblarning hammasi to‘g’ri;

# Quyidagi tushunchalarning soddadan- murakkabga tomon to‘g’ri joylashish tartibini
ko‘rsating.
A) Metodika → metodologiya → metod → texnologiya → usul;
B) Metod → metodika → usul → metodologiya → texnologiya;
C) Usul → metod → metodika → metodologiya → texnologiya;
D) Texnologiya → metodologiya → usul → metod → metodika;

# O‘quv materialini tanlashda qaysi prinsipga rioya qilinadi?
A) Osondan boshlash lozim;
B) Talabalarga faqat oson mavzularni o‘tish kerak;
C) O‘quv materialini soddadan-murakkabga tomon rivojlantirib borish;
D) O‘quv materialining mukammalligini ta’minlash;

# O‘qitish jarayonida nazoratning rivojlantiruvchi funksiyasini toping.
A) Talabalarda barqaror diqqatni vujudga keltirish;.
B) Xotirani mustahkamlash;
C) O‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash;
D) Hamma javoblar to‘g’ri.

# Ko‘nikma nima?
A) SHaxsning bilim va ko‘nikmalariga asoslangan holda ma’lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi;
B) Turli xildagi murakkab faoliyatni bajarishga tayyorgarlik;
C) Ma’lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanishish;
D) Uzoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo‘ladigan kishining anglangan ish xarakatlarini bajarishdagi avtomatlashgan usulidir;

# Malaka nima?

A) Ma’lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanishish;
B) Uzoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo‘ladigan kishining anglangan ish xarakatlarini bajarishdagi avtomatlashgan usulidir;
C) SHaxsning bilim va ko‘nikmalariga asoslangan holda ma’lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi;
D) Kishining amalda qo‘llashi mumkin bo‘lgan bilimlaridir;

# Xarakter nima?
A) Kishining xulq-atvorida, uning hatti- harakatlarida namoyon bo‘ladigan tug’ma xususiyatlari;
B) Kishining oliy nerv faoliyati xususiyatlari bilan bog’lanmagan holatda hayot mobaynida shakllanadigan turli psixik xususiyatlari majmui;
C) SHaxsning oliy nerv faoliyati bilan bog’liq holda uning hayoti mobaynida shakllanib, o‘z-o‘ziga va boshqa kishilarga, tevarak atrofdagi olamga bo‘lgan munosabatlarida ifodalangan individual xususiyatlari;
D) birorta kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar majmuasi.

# O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi, bu...
A) Insonni har tomonlama rivojlantirish va kamol topishi;
B) Ekologiyani yaxshilash;
C) Ilm, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish;
D) Dunyoviy aloqalarni bir-biri bilan bog’lash;

# Layoqat nima?
A) Kishining xulq-atvorida, uning hatti- harakatlarida namoyon bo‘ladigan
B) tug’ma xususiyatlari;
C) Layoqat qobiliyatlarning shakllanish jarayoniga ta’sir etadi;
D) Odamning anatomik-fiziologik xususiyati bo‘lib, qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki ma’lum shart-sharoitlarni yaratadi;

# O‘z-o‘zini tarbiyalash metod va usullariga quyidagilar kiradi:...
A) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik, hamkorlikdagi ijodkorlik;
B) O‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga hisobot berish, o‘z-o‘zini ishontirish, o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘z-o‘zini majbur etish;
C) O‘z-o‘zini boshqarish, talaba shaxsini tushunish, o‘z- o‘zini nazorat qilish, o‘z faoliyatiga o‘zi baho berishi, muomalada o‘zini ko‘rsata olish, o‘z nutqini to‘g’ri tuza olish va boshqalar;
D) O‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish;

# «Inson kamolotida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o‘ynaydi» degan fikrlar muallifi kim?

A) Forobiy;.
B) Beruniy.;
C) Ibn Sino;
D) Yusuf Xos Hojib;

# An’anaviy ta’limning asosiy kamchiligini ko‘rsating?
A) Ta’limda o‘quvchining maqsadlari inobatga olinmaydi;
B) Zamonaviy ta’limning talablariga butunlay javob bermaydi;
C) Ta’lim faqat darslik va o‘quv qo‘llanmalarga asoslanadi;
D) Talabaning aqliy, ijodiy, kommutativ bilim olishini yetarlicha ta’minlanmaydi.

# Shaxsning barkamolligini ta’minlovchi manbalarni toping.
A) Xalqimizning ma’naviyat, axloq-odob va ma’rifat bilan bog’liq qadriyatlari;
B) Xalqimizning huquqiy va ma’naviy qadriyatlari;
C) Xalqimizning ijtimoiy, huquqiy, diniy qadriyatlari;
D) Xalqimizning ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlari;

# Didaktika nima?
A) Pedagogikaning ta’lim nazariyasi, fanlarni o‘qish va o‘qitish bilan bog’liq ta’lim masalalari bilan shug’ullanuvchi bo‘limi;
B) Didaktika pedagogikaning bir bo‘limi;
C) Didaktika pedagogikaning tarbiya bilan shug’ulanuvchi bir bo‘limi;
D) Didaktika boshlang’ich sinflarda fanlarni o‘qitish metodikasi.

# Interfaol .... ma’nosini anglatadi. Nuqtalar o‘rnida qoldirilgan so‘zni toping.
A) Kichik guruhlarga ajratish;
B) Guruhlarda ta’lim olish;
C) Ta’lim olish uchun o‘zaro xarakat qilish;
D) Bahslashish..

# Didaktik prinsiplar deganda nimani tushunasiz?
A) Ta’limda o‘quv materialini tanlash va uni o‘rganishda asoslaniladigan boshlang’ich asosiy qonun – qoidalar;
B) Pedagogik texnologiyalarni ta’limda qo‘llash qoidalari;
C) O‘qituvchining rioya qiladigan metodik sistemasi;
D) Talabalar uchun yo‘l–yo‘riqlar, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar tizimi.

# O‘qituvchining ta’limga an’anaviy yondashuvida qanday xususiyatlar mavjud?
A) O‘qitishga muammoviy-fanlararo yondashish, e’tiborni amaliyotga yoki qo‘llashga qaratilganligi;
B) O‘qituvchi boshqaruvchi, o‘quv maqsadlar aniq emas, o‘qituvchi bilimlarni monolog orqali yetqazadi, o‘quvchi bilimlarni passiv qabul qilish;
C) O‘qituvchi to‘g’ri javobni formal holatda deb qabul qiladi, asosiy e’tibor o‘qitishning mazmuniga qaratilganligi;

D) Holatlar «yuqoridan pastga» qaraladi, asosiy e’tibor nazariyaga qaratilgan, faoliyat produktiv, stereotipli, ta’lim oluvchi faolligi ta’minlanadi;

# Muammoli ta’lim metodining ta’rifi qaysi javobda keltirilgan?
A) O‘qituvchi talabalarning bilimiga tayanib, yangi materialni bayon qiladi;
B) Biror sohada yangi yutuqlarni tushuntirish, yangi tuzilma olish maqsadida berilgan elementlardan bir butunni hosil qilish;
C) Talabalarni biron ob’ekt bilan tanishtirish, so‘ngra uni tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganishdir;
D) Ilmiy bilish jarayonining ob’ektiv qarama-qarshiliklarini aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan, fikrlashga o‘rgatish va bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishga qaratilgan ta’lim metodi;

# Ikkita o‘quvchi nizolashayotganlarida o‘qituvchi tomonidan alohida-alohida “muhim” topshiriq ikkala o‘quvchiga berildi. Bu psixologik ta’sir ko‘rsatishning qaysi turiga xos bo‘ladi?
A) Endogen va ekzogen ta’siriga xos bo‘ladi;
B) Oldindan rejalashtirilgan ta’sir;
C) Rejalashtirilmagan ta’sir;
D) Ochiq turdagi ta’sir.

# Nutqning vazifalarini aniqlang.
A) Nutq vositasida bolaning his-tuyg’ulari, o‘quvchilar orasida muloqot, olingan ma’lumotlarni ongli tahliliy idrok etish;
B) Lug’aviy, grammatik, leksik, jihatdan to‘g’riligi va boyligi;
C) Nutqning ifodaliligi, obrazliligi, yorqinligi, his tuyg’ularga boyligi;
D) O‘qituvchining nutqida, hatti-harakatida, o‘quvchilar shaxsiga nisbatan hurmat;

# Ta’lim va tarbiya qaysi yondashuv asosida to‘laqonli amalga oshadi?
A) O‘quvchilarning yosh, individual xususiyatlari, temperamentini inobatga olib;
B) Davlat standarti, o‘quv reja, dasturda belgilangan talablar asosida ish ko‘rilganida;
C) Nutq yordamida muloqotga kirishish, estetik va ma’naviy ruhiy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish;
D) O‘quvchini ijodiy yondashishi, didaktik malaka, tashkilotchilik, konstruktiv texnikalari orqali;

# Qo`yidagi ta’rif to`g’ri belgilangan qatorni toping: «Pedagogika - inson faoliyati sifatida maqsad sari qilingan harakat, xoxish istagi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan fan»
A) Pedagogika tarixi ta’rifi
B) Umumfalsafiy.
C) Umummetodik
D) Umumpedagogik

# Shaxsni shakllantirish degani nima?
A) Shaxsning ta’lim-tarbiya natijasida rivojlanishiga aytiladi
B) Atrof-muhit nasliy belgilar tarbiya ta’sirida shaxsning rivojlanish natijalariga aytiladi.
C) Tarbiyachi xoxlagan sifatlarni bolada hosil qilishga aytiladi
D) Atrof muxit ta’sirida bolaning rivojlanishiga aytiladi

# Sensor tarbiya nima?
A) Xissiy bilish usullarini shakllantirishga va sezgi hamda idrok etishni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta’sir ko`rsatish sistemasi
B) Aqlni rivojlantirish maksadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir ko`rsatishdir
C) Yosh avlodda mehnat qilishga tayyorgarlikni shakllantirish
D) Sa’nat va hayot go`zalligi bilan tanishtirib borish bolalarning aqlini, hissini tarbiyalab borish

# Milliy pedagogikaning vazifasi nima?
A) Respublikamizda yashovchi turli millat va elatlarning orzo`-istaklariga monand ta’lim-tarbiyaning ham nazariy ham amaliy muammolarini milliy kadriyatlar asosida to`g’ri xal etib berish
B) O`zbek xalk pedagogikasi tarakkiyotini o`rganish
C) O`zbek xalkining orzo`-istaklariga monand ta’lim-tarbiya konunlarini ishlab chiqish
D) Milliy kadriyatlarni urganishda pedagogikadan foydalanish

# «Avestoda» bolalarni o`qitish va tarbiyalash qoidalari qay tartibda tavsiya etilgan?
A) Diniy, ahloqiy, estetik tarbiya
B) Diniy va ahloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o`qish va yozishni o`rgatish
C) Diniy tarbiya, dunyoviy ilmlar, ahloqiy tarbiya
D) Jismoniy tarbiya, ahloqiy tarbiya, diniy tarbiya, estetik tarbiya

# Mashg’ulotning an’anaviy metodlarini ko‘rsating?
A) Og’zaki ko‘rgazmali, o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari;
B) Ko‘rgazmali, mantiqiy, ommaviy metodlari, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
C) Og’zaki ko‘rgazmali, ommaviy, mantiqiy, mustaqil ishlash, nazorat metodlari;
D) Mantiqiy, o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari, mustaqil ta’lim olish.

# Mashg’ulot mavzulari talabalarga mos va tushunarli bo‘lishi uchun qaysi qoidalarga amal qilish kerak?
A) O‘tilayotgan mavzuning ma’nosi va hajmi talabalar tayyorgarligiga, jismoniy rivojlanishiga va yoshiga mos bo‘lishi kerak;
B) Mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak;

C)  Mashg’ulotlarda talabalarning bilish faoliyatini faol tashkil etish kerak;
D) Barcha javoblar to‘g’ri;

# Alisher Navoiyning ko‘proq qaysi asarida ustoz haqidagi fikr yuritilgan?
A) «Qush tili» asari;
B) «Mahbub ul Qulub» asari;
C) «Xazoyinul maoniy» asari;
D) «Hayrat ul abror» asari;

# Ta’lim berishning asosiy kategoriyalari?
A) Ilmiy, nazariy, amaliy, isbotlilik, joriy etilganlik;
B) Bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash;
C) Og’zaki, ko‘rgazmali, amaliy, laboratoriya ishlari, ekskursiyalar;
D) Ilmiylik, tushunarlilik, onglilik va faollik, uzviylik.

# Ta’lim nazariyasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi ?
A) Ta’lim jarayonining mohiyati, ta’lim mazmuni, ta’lim tamoyillari, metodlari, shakllari va
vositalari;
B) Bilim ko‘nikma malaka, iroda, faoliyat turlari;
C) Ta’lim mazmuni, dars janri, ta’lim maqsadi, ta’limiy vazifalar, ta’lim ob’ekti, predmeti, ilmiy farazi;
D) Ta’lim – tarbiya mazmunini ifodalovchi barcha qonun-qoidalar hamda metodologik asoslari, nazariy va amaliy ahamiyati;

# O‘qitish shakllari to‘liq berilgan javobni toping.
A) Ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya mashg’ulotlari, mustaqil ta’lim, amaliyot;
B) Mashg’ulot, turli sayohatlar, sinfdan tashqari mashg’ulotlar, hikoya;.
C) Mashg’ulot, mashg’ulotdan tashqari ishlar, turli sayohatlar, individual mashg’ulot shakllari, guruhda o‘tkaziladigan mashg’ulot shakllari, ommaviy mashg’ulotlar;
D) Mashg’ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya, sinfdan tashqari mashgulotlar;

# Ota-onalarning hamda qonuniy vasiylarning bolalar oldidagi  vazifalari qaysi javobda to‘g’ri ko‘rsatilgan?
A) Bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
B) Bola tarbiyasiga javobgarlik;
C) Bolaning maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-xunar ta’limi olishiga mas’ul;
D) Barcha javoblar to‘g’ri;

# Interaktiv usullarga asoslangan ta’lim jarayonlarini  ko‘rsating?
A) Hamkorlikda ta’lim olishda  ta’lim oluvchi uchun  tashkil etilgan  bilim faoliyatining maxsus shakli;

B) An’anaviy o‘qitish metodikasini inkor etuvchi, avtoritar boshqaruv usullariga asoslangan ta’lim usuli;
C) Eksperimental psixologiya yutuqlari asosida mavzuning ilmiyligi, izchilligi, oddiydan murakkabga yo‘nalishni, ko‘rsatmaliligi, bilim va axborotlarni hayotiyligi, jonliligi ravon tilda olib borilishi.
D) Didaktikaga asoslangan ta’lim usuli.

# Shaxsga ta’sir etish orqali tarbiyalash metodlari va usullariga quyidagilar kiradi?
A) O‘z - o‘zini boshqarish, o‘quvchi shaxsini tushunish, muomalada o‘zini ko‘rsata olish, o‘z nutqini to‘g’ri talaffuz qilish va boshqalar;
B) O‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish;
C) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikdagi ijodkorlik;
D) O‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga hisobot berish, o‘z- o‘zini ishontirish, o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘z-o‘zini majbur etish;

# Ta’limda ilm orqali bilim olish deganda nimani tushunasiz?
A) Bitiruv malakaviy ish tayyorlash natijasi;
B) Kurs ishlarini bajarish natijasi;
C) Ta’lim oluvchining ilmiy metodlarga asoslanib bilim olishi;
D) Dars jarayonida ta’lim va tarbiyani birligiga erishishi.

# Pedagogik faoliyatda mehnat malakasi deb nimaga aytiladi?
A) Bir xil tarzda ishchi yoki uning tanasi, oyog’i, qo‘li, barmoqlari bilan predmetni ko‘chirish yoki ushlash uchun ketadigan jarayon;
B) Tanaffussiz bitta yoki bir nechta inson harakat organlarining ish bajarishi;
C) Egallagan bilimlarini o‘zining hayotiy va amaliy faoliyatida qo‘llay bilishi;
D) Kam vaqt va mehnatni sarf qilgan holda xatosiz, nazoratsiz operatsiyalarning bajarilishini ta’minlash.

# Qaysi Yunon faylasuflari o‘z asarlarida pedagoglarning kasbiy mahorati va ularning notiqlik san’ati haqida gapirib o‘tganlar?
A) Sokrat, Demosfen, Aristotel, Esxil.
B) Komenskiy, Demosfen, Forobiy.
C) Sitseron, Beruniy, Ibn Sino.
D) Komenskiy, Aristotel.

# Qobiliyat bilimdan farq qiladi, bilim...?
A) Igna bilan quduq qazishdir.
B) Ilmiy mutolaa natijasidir.
C) Inson umrini bezovchi bezak.
D) Qorong'i yo'llarni yoritguvchi chiroq.

Qobiliyatga yaqin tushunchalar...?
A) Iqtidor va mohirlik.

B) Mahorat va iste'dod.
C) Intellekt va ziyraklik.
D) Ko'nikma va malakalar.

# Quyida pedagogik mahorat fanining asosiy vazifalarini belgilang?
A) Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni insonparvariik demokratik tamoyillarga asoslab olib borish.
B) Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirish.
C) Ta'lim mazmunini fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari bilan boyitib borish.
D) Barcha javoblar to'g'ri.

# Quyidagi pedagogik nazokatga oid to'g'ri tavsifni belgilang?
A) Pedagogik nazokat - do'stlik, xizmatdagi moslik, chiqishib, hamjihat bo'lish, mayinlik.
B) Pedagogik nazokat - ta'lim va tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tanlash, uning rejasini tuzish. o'tkazish va tahlil qilish.
C) Pedagogik nazokat-nafasni to'g'ri moslab olish, ovozning o'zgaruvchanligi va mayinligi, talaffuz, ravon nutq madaniyati.
D) Pedagogik nazokat - o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi, xulq va odob qoidalariga rioya qilish, odamiylik, kamtarlik va mehr-oqibat tuyg'ulari.

# Notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan "Brut", "Notiqlik san'ati namoyondalari", "Notiq", "Notiqlik haqida" kabi asarlar muallifi kim?
A) Sitseron.
B) Demosfen.
C) Giperid.
D) Isokrat.

# Notiqlik san'atini Yunonistonda qanday nomlashgan?
A) "Yuksak iqtidorli ovoz sohibi".
B) "Tinglovchiga halovat bag'ishlovchi".
C) "Siyosiy tribuna".
D) "San'atlar shohi".

# Nutq necha turga bo'linadi?
A) 1 ta: muloqot nutqi.
B) 2 ta: og'zaki, yozma.
C) 3 ta: og'zaki, yozma, tashqi.
D) 4 ta: impressiv, ekspressiv, og'zaki, yozma.

# Nutq texnikasi bo'yicha ishlab chiqilgan mashqlar turkumiga qaysilar kiradi?
A) Ovoz o'zgarishi, nafas olish, ravon nutq.

B)Yozma va og'zaki nutq, ichki nutq.
C) Ichki nutq, tashqi nutq, dialogik va monologik nutqlar.
D) Nutq organlari, nutq apparati, nutq odobi.

# Nutq texnikasiga nimalar kiradi?
A) Nafas olish, ovozni yo‘lga qo‘yish, uning tovlanishi, talaffuzi, notiqlik san’ati.
B) Nutq asosida o'quvchilarni ishontira olish, ularga ta’sir qilish, taqlid qilishni shakllantirish.
C) Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, tilning grammatik qoidalariga rioya qilish.
D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

# Nutqda tembr nima?
A) Nutqiy nafas olishda fonatsional usullardan foydalanish.
B) Adabiy til normalariga doimiy rioya qilish.
C) Notiqlik san’atini mukammal egallash.
D) Tovush bo‘yog‘i, tovushning yorqinligi, yumshoq hamda o'ziga xosligi.

# Nutqning asosiy xususiyatlari qanday talablar asosida kelib chiqadi?
A) Nutqning to'g'riligi va ravonligi.
B) Nutqning aniqligi va ta’sirchanligi.
C) Nutqning mantiqiyligi va tozaligi.
D) Barcha javoblar to‘g'ri.

# Nutqning toza bo‘lishiga xalaqit beruvchi unsurlarni belgilang?
A) Orfoepik va intonatsiya.
B) Rezonator va diapazon.
C) Dialektizm va varvarizm.
D)Ovoz tembri va balandligi.

# O`qituvchi tomonidan muntazam bajarib boriladigan kommunikativ vazifalar?
A) Muloqotning uzluksiz jarayonlari, qonuniyatiari, tizimi va tamoyillarini o‘rganish.
B) Pedagogik kommunikatsiyani ta`lim jarayonida bevosita qo‘llash tartibi va texnologiyalarini egallash.
C) Pedagogik muloqotning ko'nikma va malakalarini uzluksiz o'zlashtirib borish, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish.
D) Barcha javoblar to'g'ri.

# Ta’lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi mahoratini belgilovchi maqsadlar?
A) Ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
B) Ilmiy, texnik, psixologik.
C) Texnik, texnologik, ishlab chiqaruvchi.
D) Yozish, chizish, o'qish, aytish.

# Ta’lim-tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o'rtasidagi muloqot madaniyati nima?
A) Bevosita o'zaro munosabat asosida ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltirilgan maqsad.

B) O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatiga qat’iy rioya qilishi.
C) O'zaro munosabatning “Ustoz-shogird” an’analariga xos shakllanib borishi.
D) O'qituvchining Boshqaruv psixologiyasiini namoyish etishi, yuksak xulq namunalarini ko'rsata olishi.

# Ta’sir etishning eng muhim usullarini belgilang?
A)pedagogik mahoratasosida yutuqlarga erishishga o‘z-o‘zini ishontirish metodi.
B) o`z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini anglash, o`z- o‘zini ishontirish.
C) o‘qituvchining har qanday ta’lim-tarbiyaviy jarayonda o‘z his- tuyg'usini jilovlay olishi.
D) Kasbiy mahoratning ko‘nikma va malakalarini oshirishda o‘z-o‘zini kuzatish metodi.

# Zamonaviy, bilimli, vatanparvar insonlarni tarbiyalash kimning vazifasi?
A)Faylasufning.
B) Pedagogning.
C) Jamiyatning.
D) Hokimiyatning.

# “Nutq qudratli kuch: ishontiradi, undaydi, majbur qiladi” deydi qaysi alloma?
A) R.Emerson
B)Demosfen.
C) Giperid.
D) Isokrat.

# Pedagogik muomala - bu o’qituvchining talabalarga ta’sir o’tkazish usullarining muayyan tizimidir.
A) o’qituvchining talabalarga ta’sir o’tkazish usullarining muayyan tizimidir.
B) hamkorlik ishtirokchilarning o’zaro axborot almashuvi
C) turlicha kommunikativ vositalar yordamida o’qituvchi tomonidan talabalar bilan o’zaro ta’sir va o’zaro munosabatni tashkil qilish
D) barcha javoblar to’g’ri

# Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlari ?
A)Muloqotning boshlang‘ich bosqichida o‘zini erkin his etish, umumiy kayfiyat dilkashlik va xushmuomalalikning barcha bosqichlarida ruhiy xotirjamlikni his etish
B) o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. pedagogik ta’sir ko'rsatishdagi o'qituvchining ma’naviy va estetik qiyofasi.
C) o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.
D) Kommunikativ jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash tizimi individual, berilgan tavsiyalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

# o`qituvchining pedagogik mahoratida.......... kabi qonuniyatlar muhim didaktik qonuniyatlar ta`lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e`tirof etilgan
A) bilish, tushunish, qo`llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash
B) bilish, tarbiyalash, yozish, o`qish, boshqarish
C) loyihalash, modellashtirish, qo`llash, tahlil qilish,

D) sintez qilish, baholash, yo`naltirish, baholash
# O`qituvchining  nutq madaniyatida  qanday xususiyatlar aks etishi  kerak?
A) nutqning to`g`riligi, nutqning aniqligi
B) nutqning ifodaviyligi, , nutqning ravonligi,
C) nutqning sofligi,  nutqning boyligi
D)  barcha javoblar to`g`ri
# Pedagogik maqsadga qaratilganlik va pedagogning tashqi qiyofasi?
A) Kiyinish, yurish turishda namuna bo‘lish
B) Do‘stlasha bilish qobiliyati
C) O‘rtaga tusha bilish qobiliyati.
D) Jo‘shqin, qiziqqon, vazmin
# Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi mahoratini belgilovchi maqsadlar?
A)  Ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi
B) Ilmiy, texnik, psixologik
C) Texnik, texnologik, ishlab chiqaruvchi
D) Yozish, chizish, o‘qish, aytish
# Dars va uning tiplari, ma’ruza, seminar, laboratoriya mashg`ulotlari bu….?
A) ta’limning  tashkiliy shakli
B) ma’lumot mazmuni
C) Kadrlar tayyorlash milliy modeli
D) ta’limning mazmuni
# O‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim- tarbiyaviy tadbir mohiyatini o‘quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatni belgilang?
A) Notiqlik san’atini namoyon qila olishi.
B) O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati.
C) O‘qituvchining jonli muloqoti.
D) O‘qituvchining pedagogik mahorati.
# O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qo‘yiladigan talablar ilk bor qaysi olimlar tomonidan tadqiq qilingan?
A) A. Avloniy.
B) I.P.Radchenko, R.Rasulova.
C) V.D.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko.
D) Ya.A.Komenskiy, V.A.Kan - Kalik.

# Inson kamolotida o‘qituvchining mehnatini namoyon etuvchi asosiy vositalar?
A) Shaxsning ta’lim va tarbiya jarayonida erishgan yutuqlari.
B) Axborot texnologiyalari asosida mashg‘ulotlarni o‘tkazish.
C) Insonning hayotiy faoliyatida erishadigan yutuqlari va ijobiy natijalari.
D) O‘quv materiallarini nazariy va amaliy jihatdan puxta o‘zlashtirishi.
# Pedagogik refleksiyaga berilgan mukammal ta’rif qaysi javobda ko‘rsatilgan?

A) Pedagogik refleksiya - o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirish, hamisha amalga oshiradigan faoliyatidir.
B) Pedagogik refleksiya - o‘qituvchi faoliyatidagi tashqi sabablaming ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati.
C) Pedagogik refleksiya - o‘qituvchiga o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o‘z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko‘maklashadi hamda uning rivojlanishini ta’minlaydi.
D)Pedagogik refleksiya - o‘qituvchi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish, unda refleksiyaning mukammal rivojlanganlik darajasini belgilaydi.
# Tarbiya texnologiyalarining samaradorligini oldindan ko‘ra bilish yoki . loyihalashtirishda va tadqiq etishda modellashtirishdan foydalanish to‘g‘risidagi muammo qanday nom olgan?
A) Tarbiyaviy modellashtirish.
B) Texnikaviy modellashtirish.
C) Diagnostik modellashtirish.
D) Pedagogik modellashtirish.
# Pedagogikada jadvallar, chizmalar, formulalar qanday modellar sifatida namoyon bo‘ladi?
A) Belgili modellashtirish.
B) Loyihali modellashtirish.
C) Predmetli modellashtirish.
D) Pedagogik modellashtirish.
# “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?
A) 2002-yil, 6-iyundagi 200-sonli.
B) 2008-yil, 10-martdagi 197-sonli.
C) 2004-yil, 27-avgustdagi 211-sonli.
D) 2006-yil, 5-sentyabrdagi 211-sonli.
# O’quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o’quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitish... bu?
A) Fanlararo aloqadorlikda o’qitish.
B) O’qituvchining qiziqishlari asosida o‘qitish.
C) Axborot texnologiyalari asosida o’qitish.
D) Shaxsga yo'naltirilgan o’qitish.
# O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloq-odobni, muloqot madaniyatini avvalo kimning timsolida ko'rishga intiladi?
A) O'qituvchi timsolida ko'rishga intiladi.
B) Ota-onasi timsolida ko'radi.
C) O'zi qiziqqan film va asar qahramonlari obrazida ko'radi.
D) O'z xarakterida shakllantirishga intiladi.
# O'qituvchining o'zaro fikr almashishi bilan bog'liq xususiyatlarini belgilang?

A) Ishontirish va ta’sir etish
B) Mimika va pantomimika.
C) Kommunikativ hamda konstruktiv.
D) Empatiya hamda perseptiv xususiyatlar.
# O'qituvchilar o'quvchilar bilan dars jarayonida qanday munosabatda bo'lishi kerak?
A) O'qituvchi va o'quvchi orasida hamkorlik va ishonch.
B) Ular orasida do'stona muloqotda bo'lish.
C) Bir-biriga e’tiborsiz bo'lishi.
D) O'qituvchi va o'quvchilar orasida masofa bo'lishi.
# O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib, shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkurasiga yo'naltirilgan faoliyat....-bu?
A) Shaxsni shakllantirish.
B) Tarbiya.
C) Ta’lim-tarbiya.
D) Ta’lim.
# O'qituvchi va o'quvchi muloqotini bog'lovchi asosiy vosita?
A) So'z.
B) Deklamatsiya.
C) Dialog.
D)Nutq.
# O'qituvchi o'zining qanday xususiyatlari ustida ko'rgoq shug'ullanishi lozim?
A) Barchasi to'g'ri.
B) Bilimi, nutqi.
C) Xatti-harakati.
D) His-tuyg'usi.
# O'qituvchi mehnatining samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini aniqlang?
A)  Didaktik qobiliyat, perseptiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, obro‘ orttira olish.
B)Aniq maqsadni ko'zlash, qat'ivatlik, kamtarlik, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik,
C) kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish.
D) Tashkilotchilik, obro‘ orttira olish, muloqot qilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish.
# O'qituvchi mehnatiga ta’sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlaridan biri...
A) O'qituvchining kasbiy mahoratidir.
B) Mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur o'zlashtirishidir.
C) O'qituvchining obyektiv - shaxsiy xususiyatlaridir.
D) Ta’lim va tarbiya birligini ta’minlashdir.
# O'qituvchi mehnatida uning aktyorlik san’atiga xos bo'lgan asosiy

xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
A) Notiqlik san’ati va perseptiv qobiliyatlar
B) Pedagogik texnika va pedagogik muloqot.
C) Mimika va pantomimika.
D)Kommunikativ qobiliyat va muosharat odobi.
# O’zbekiston Respublikasining kelajagi nimaga bog’liq? .
A) O’qituvchiga, uning saviyasiga, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liq.
B) Pedagogik mahoratni egallash va kasbiy tayyorgarligiga.
C) O’qituvchining ma’naviyati va bilimiga.
D) Ixtisosga doir fanlarni chuqur o’zlashtirishiga.
# O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad...
A) Insonni har tomonlama rivojlanishini va kamol topishini ta’minlash.
B) Hayot va tabiat birligi bo‘lgan ekologiyani yanada yaxshilash uchun bolalarga ekologik tarbiya berish.
C) Ilm, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish, ta’lim sohasini bosqichma-bosqich isloh qilish.
D) Dunyoviy madaniy aloqalarni bir-biri bilan uzviy bog'lash, kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirish.
# O‘zaro fikr almashishda o‘quvchi ongiga ta’sir qilish bu...?
A) O‘quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashi ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladi.
B) O‘quvchining psixikasi va xulq-atvoriga nazoratsiz kirib borib, ta’sir ko‘rsatadi.
C) Ta’lim-tarbiya jarayonida alohida o‘quvchi bilan suhbat o‘tkazilib, unga ta’sir qilinadi.
D) O‘quvchi o'qituvchining yoki biror shaxsning ta’sirida xulq-atvorini shakllantirishga harakat qiladi.
# O‘qituvchilik kasbini tanlagan kishi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?
A) Bolalarni yoqtirishi, o'z fanini mustahkam egallashi, nutqining ravonligi.
B) Pedagogik mahoratni mukammal egallashi, barcha qobiliyatlarni o‘zida namoyon etishi.
C) Iymon-e’tiqodli, dunyoqarashining kengligi, odob-axloqi, fuqarolik burchini his etishi, ma’naviyati, dilkashligi.
D)Sog‘lom bo`lishi, bolalarni sevishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi.
# O‘qituvchilik kasbini ko‘pincha qanday nomlashadi?
A) Matonatli kasb egasi.
B) Bola qalbining injeneri.
C) Bolaga ta’lim-tarbiya beruvchi shaxs.
D)Otangdek ulug‘ inson.
# O‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim- tarbiyaviy tadbir mohiyatini o‘quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib

chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatni belgilang?
A) O‘qituvchining jonli muloqoti.
B) O‘qituvchining pedagogik mahorati.
C) O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati.
D) Notiqlik san’atini namoyon qila olishi.
# O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishi uchun...?
A) Darhol tartibsiz o‘quvchini topib unga nisbatan tarbiyaviy jazo metodini qo'llashi shart.
B) O`zi ishlayotgan o‘quv muassasasi rahbariyatiga yordam so'rab murojaat qilishi kerak.

C) Avvalo o'z iqtidoriga, pedagogik va psixologik mahoratiga tayanishi lozim.
D)Ota-onasini o‘quv muassasasiga chaqirtirishi va suhbat o‘tkazib ogohlantirishi kerak.
# Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini belgilang?
A) Jamoaviy va yakka tartibdagi suhbat metodlari.
B) Rag'batlantirish va jazolash metodlari.
C) Pedagogik texnologiyaga oid tarbiyaviy metodlar.
D)  Ishontirish, ongga ta’sir o'tkazish metodlari.
# Maktab  o’qituvchilarining faoliyati nimaga qaratilgan?
A)  Inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.
B) Yosh avlodni mehnatga tayyorlashga.
C) Tarbiyalashga.
D) Bilimlarini oshirishga.
# Lotin tilidan olingan “ Ritorika”  so’zi qanday  ma’noni bildiradi
A) Chiroyli yozish, xattotlik  sa’nati.
B) Nutq texnikasi
C) Chiroyli nutq so’zlash, oratorlik  san’ati.
D) Tilni o’rganish sa’nati.

# Kommunikativ tushunchasining mohiyatini belgilang?
A) O'quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy ijobiy aloqa o'rnatish.
B) Tahsil, tarbiyaviy va aqliy faoliyatni nazorat qilish.
C) An’anaviy va noan’anaviy usullar asosida nazorat qilish.
D) Diagnostik va bilim olish ishtiyoqini o'stirish, shaxsiy hislatlarini shakllantirish va rivojlantirish funksiyalari.
# Kommunikativ ta’sir etishning qanday shakllari mavjud?
A) Oldindan o'quvchilarni ogohlantirish, tezlik bilan o'quvchilar tafakkuriga ta’sir etish.
B) Tahlil etilgan iboralar, andozaga kiritilgan nutqlar asosida mahorat bilan dars olib borish.
C) O'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, nutq madaniyati.

D) O'z kasbiga bo'lgan salbiy munosabat, chiqisha olmaslik, tadbirni tanlash, rejasini tuzish, tahlil qilish, guruhlarga bo'linish.
# Kommunikativ qobiliyatni namoyon etuvchi asosiy komponentni belgilang?
A) Pedagogik ta’sir ko‘rsatish.
B) Mimika va pantomimika.
C) o`z sohasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo`lish.
D) Nutq madaniyatiga doir bilimlar.
# Kommunikativ qobiliyatning ta’rifi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang?
A) Ta’lim-tarbiya jarayonida harakatchan va tashabbuskor bo'lish.
B) Kasbiy xushyorlik, emotsiya, pedagogik intuitsiya.
C) Kishilarni o'ziga ishontira olish, muloqotga tez kirisha olish, ochiqlik, ya’ni muloqot ehtiyoji.
D)Har qanday pedagogik vaziyatlarda o'z-o'zini boshqara olish.
# Kommunikativ munosabatda ishontirishning quyidagi faoliyat shakllari mavjud:
A) Ovozning o'zgarishi, talaffuz, nutq ohangi asosida O‘quvchilar ongiga sezdirmasdan ta’sir qilish.
B) Nutq madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, o‘z-o‘zini boshqarish munosabati.
C) Mavzu bo'yicha topshiriq berish, uni mashq qilish, o‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish.
D) Bahs, munozara, suhbatda o‘qituvchining dalillashi, isbot va mantiqqa tayanish.
# Kasbiy pedagogik mahorat mazmunini “Ilg‘or o‘qituvchi”, “Ijodkor o‘qituvchi”, “Novator o‘qituvchi ” timsolida tasavvur etgan olim kim?
A) Malla Ochilov.
B) Hikmatulla Abdullayev.
C) Komil Zaripov
D)Cho'lpon.

# Kasbiy bilimlar mukammal bo‘lishi uchun nimalar talab etiladi?
A) Pedagogik qobiliyatga asoslangan ta’lim va tarbiyaviy rejalarni mukammal tuzish.
B) Metodik bilimlar, ta'limning texnologiK tomoni, kasbiy qobiliyatlarga ega bo‘lish.
C) Fan metodologiyasi, nazariy bilimlar, pedagogik qobiliyat, ko‘nikma va malakalar
D)Fanning metodologiyasini bilish, nazariy bilimlar, metodik bilimlar, ta’limning texnologik tomonini o'rganish.
# K.D. Ushinskiyning ta’kidlashicha, o‘qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri.... ?
A) Chuqur bilimi, madaniyati, ma'rifatli bo‘lishi.
B) Yuksak pedagogik mahorati, o'quvchilarni seva olishi.
C) Muallimning tarbiyaviy kuchi va qobiliyatini ko‘rsatadigan oyina.

D) O‘qituvchining pedagogik takti va psixologik bilimi.
# “Voiz (notiq) odamning o‘zi avvalo halol ish ko‘ruvchi bo'lishi kerak, uning nasihatlaridan chiqmaslik shart”. Ushbu fikrlar muallifIni belgilang?
A) Abu Ali ibn Sino.
B) Alisher Navoiy
C) Husayn Voiz Koshifiy
D) Abu Nasr Forobiy.
# Bilim deganda nima tushuniladi?
A) Dialektik dunyoqarash, bilimga qiziqish va shaxsiy fazilatlar.
B) Insonning dunyoqarashi, hodisa va voqealarga bo`lgan munosabati.
C) Tasavvurlar, tushunchalar va mulohazalar.
D) Hissiyot, qobiliyat va mahorat.
# Darsning an’anaviy metodlarini ko‘rsating?
A) Og‘zaki ko‘rgazmali, o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.
B) Ko'rgazmali. mantiqiy, ommaviy metodlari.
C) Aralash darslar, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari, bilimlarni umumlashtirish darslari.
D) Mantiqiy, o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.
# Bolalarning sog’lom usishi bilan ularni aqliy, jismoniy mehnatga, vatan mudofaasiga tayyorlash qaysi tarbiyaning maqsadi bo’lib hisoblanadi?
A) huquqiy
B) aqliy
C) jismoniy
D) axloqiy
# Bolalar qaysi tarbiya yordamida tabiat va jamiyatda go’zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o’rganadilar?
A) axloqiy
B) huquqiy
C) estetik
D) iqtisodiy
# Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatlar qaysi qobiliyat?
A) Nutq qobiliyati
B) Tushuntira olish qobiliyati.
C) Bilish qobiliyati.
D) Kuzatuvchanlik qobiliyati
# Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniy” nonili risolasida ma’ruza o‘qiladigan joyni qanday nomlaydi?
A) Ilm markazi.
B) Sahna.
C) Maraka joyi
D) Bilim o‘chog‘i.
# Ilmiylik tamoyili  deganda nimani tushunasiz?
A) ta’lim-tarbiyani hayot bilan bog’lash tushuniladi
B) ilmiy asoslangan, tajribadan o’tgan bilimlarni o’quvchilarga o’rgatish tushuniladi

C) beriladigan bilimlarni chuqur o’rganish tushuniladi.
D) olingan bilimlarni amalda qo’llash tushuniladi.
# Inson kamolotida o‘qituvchining mehnatini namoyon etuvchi asosiy vositalar?
A) O‘quv materiallarini nazariy va amaliy jihatdan puxta o‘zlashtirishi.
B) Axborot texnologiyalari asosida mashg‘ulotlarni o‘tkazish.
C) Insonning hayotiy faoliyatida erishadigan yutuqlari va ijobiy natijalari.
D) Shaxsning ta’lim va tarbiya jarayonida erishgan yutuqlari.
# O‘qituvchi pedagogik qobiliyatini namoyon etuvchi yordamchi xususiyatlarni belgilang?
A) Barcha javoblar to‘g‘ri.
B) O‘qituvchining nutqi: notiqlik san’ati, so‘z boyligi.
C) Aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika. xayoliy fantaziya.
D) Aql-idrokning muayyan turlari: hozirjavoblik, sobitqadamlik.
# O‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim- tarbiyaviy tadbir mohiyatini o‘quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatni belgilang?
A) O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati.
B) O‘qituvchining jonli muloqoti.
C) O‘qituvchining pedagogik mahorati.
D) Notiqlik san’atini namoyon qila olishi.
# O‘zaro fikr almashishda o‘quvchi ongiga ta’sir qilish bu...?
A) O‘quvchining psixikasi va xulq-atvoriga nazoratsiz kirib borib, ta’sir ko‘rsatadi.
B) O‘quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashi ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladi.
C) O‘quvchi o'qituvchining yoki biror shaxsning ta’sirida xulq-atvorini shakllantirishga harakat qiladi.
D) Ta’lim-tarbiya jarayonida alohida o‘quvchi bilan suhbat o‘tkazilib, unga ta’sir qilinadi.
# O'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnoiogiyaiaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali fovdalanuvchi o'qitish... bu?
A) Axborot texnologiyalari asosida o'qitish.
B) O'qituvchining qiziqishlari asosida o'qitish.
C) Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish.
D) Fanlararo aloqadorlikda o'qitish.
# So’z va bo’g’in tovushining aytilishidagi to’g’ri va aniqlik nima deyiladi?
A) Ritmika
B) Nafas
C) Diksiya.
D) Diafragma.
# Ta’lim sohasidagi xizmatlarning istemolchisini ko’rsatilgan qatorni ko’rsating?
A) Talabalar
B) Shaxs

C) Muassasa tarbiyachilari.
D) Fan
#  «Pedagogik mahorat» faning predmetini aniqlang?
A) Tajribalar, o‘quv jarayoni
B) Zamonaviy ilg‘or o‘qituvchilar yutuqlarini o‘rganish.
C) Pedagogik tajriba.
D) Pedagogik tushunchalar
# Ishontirish nima?
A) Isbotlash.
B) Ko‘rsatish, namoyish etish.
C) Hikoya qilish.
D) Dalil keltirish.
# O‘qituvchi o‘zi tarbiyalanayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan e’tibor berish muommala qilishi kerak, chunki befahm va qobiliyatsiz bola kamdan-kam uchraydi. O‘qituvchi o‘zi o‘qimshli bo‘lishi, bolalarni sevishi, o‘zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo‘lar-bo‘lmasga maqtayvermasligi yoki jazolayvermasligi o‘z shogirdlari uchun o‘rnak bulishi sinchiklab o‘rganish lozim. Muallim va tarbiyachilarning talaffuzi yaxshi bo‘lishi lozim. (Ushbu fikrning muallifi kim?)
A) Kvintilian
B)  Arastu;
C) Aflotun;
D) Demokrit
# Tarbiyaning tabiatga mosligi g‘oyasini o‘rtaga qo‘ygan, o‘qitish bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan, o‘qitishda majburlash usuliga ko‘ra ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini salbiy namunalarning zararligini ta’kidlangan faylasuf kim?
A) Demokrit;
B) Sukrot;
C) Aflotun
D) Arastu.
# Agressiv metod – bu
A) mavhum fikr va g‘oyalarni o‘zlashtirish;
B) harakatlar koordinatsiyasi
C) his-tuyg‘u, iroda, intellekt kuchi bilan o‘quvchilar diqqatini qamrab olish;
D) g‘azablanish, qo‘rqitish
# Sinfga qovoq osig‘liq holda kirmaslik, ayniqsa kichik sinflarda o‘quvchilar bilan xazil mutoyiba qilish, ularga dalda berish lozim. O‘quvchining va o‘zining kelajagiga ishonish. Yosh o‘qituvchiga dars oldidan, o‘zidagi ishonchsizlikni, hayajonni yo‘qotish uchun relaksatsiya seansi o‘tkazib, jismoniy va ruhiy bo‘shashishga erishish mumkin”. Bu qanday mashqlar turiga kiradi?
A) pedagogik zo‘riqishni engillashtiruvchi mashqlar;
B) o‘z xatti-harakatini nazorat eta olish
C) o‘z-o‘ziga ishonch, optimizm;
D) o‘z-o‘zini ishontirish, ya’ni autogen mashqlar

# Tarbiyaning tabiatga mosligi g‘oyasini o‘rtaga qo‘ygan, o‘qitish bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan, o‘qitishda majburlash usuliga ko‘ra ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini salbiy namunalarning zararligini ta’kidlangan faylasuf kim?
A) Sukrot
B)  Demokrit;
C) Aflotun
D) Arastu
# Tarbiyaning asosiy xususiyatlari bu ………
A) Tarbiyaning yaxlitligi, tarbiyaning tizizmliligi,
B) Tarbiyaning davriyligi,
C) Tarbiyaning texnologiyaviyligi,
D) barcha javoblar to`g`ri
# “Ilmning foydasi ochko`zlik bilan oltin kumush to`plash uchun bo`lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo`lishdir” –ushbu fikrlar qaysi allomaga tegishli?
A) Abu Ali Ibn Sino
B) Abu Rayhon Beruniy
C) Alisher Navoiy
D) Al Xorazmiy
# Kimki shogirdligidan chin dildan shod,
Bir kun o`zi ham bo`lg`usi ustod.
Ilm ila yetish mumkin birodar,
Zarradan tortub to quyoshga qadar –ushbu misralar muallifi kim?
A) Furqat
B) A.A.Rudakiy
C) Nosir Xisrav
D) Sa`diy Sheroziy
# “Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg`in va qat`iy talab bo`lmasa jamoani tarbiyalashni boshlab bo`lmaydi” ushbu fikrlar qaysi pedagogga tegishli?
A) Makarenko
B) Disterverg
C) Ushinskiy
D) Komenskiy
# O‘qituvchining ta’lim jarayonini maqbullashtirish qobiliyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
A) O‘qituvchi va o‘quvchilarning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun yangi baza yaratishdir
B) Ta’limning didiaktik masalalarini belgilashda fanning abstraksiya pog‘onalaridan to‘g‘ri foydalanish hisobiga erishishdir
C) Ta’lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribada tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllarni joriy etishdir
D) Kam kuch sarfi evaziga o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’lim berib, o‘qitish maqsadiga erishishdir

# XI-XV asrlarda, Sharq mamlakatlarida notiqlik san’ati maktablarini rivojlantirish hamda o‘sha davr notiqlari haqidagi ma’lumotlar berilgan asar va uning muallifi.
A) Mirzakalon Ismoiliy: “Odamiylik hissasi”
B) Alisher Navoiy: "Mahbub ul-qulub"
C) Ravshanbek Maxmudov: “Degonimni uluska marg‘ub et …”
D  Kaykovus: «Qobusnoma »